



O'RMON VA SHAMOL, NAMLIK, TUPROQ HAMDA UNING TURI

Anvarbekov Islombek Anvarbek o'g'li

Xushvaqtov Jamshid Eshmurod o'g'li

Umarova Fotima Faxriddin qizi

Annotatsiya: *Shamolning o'rmonga ta'siri va o'rmonning shamolga ta'siri. Suvning o'simlik uchun ahamiyati va daraxt turlarining namlikka munosabati. O'rmon namlikning balansiga ta'siri. Tuproqning o'rmonga ta'siri va daraxtlarning mineral moddalarini iste'mol qilish. Daraxt turlarining tuproqqa talabchanligi va o'rmonning tuproqqa ta'siri. O'rmon turini aniqlash ahamiyati. Morozov G.F. va boshqa olimlarning o'rmonlar turi va to'g'risidagi nazariyasi. Pogrebnyak P.S. va Suxachev V.N. ning nazariyasi.*

Kalit so'zlar: o'rmon, shamol, zamonaviy texnologiya, namlik, tuproq, ixota, daraxtzorlar.

Аннотация: Влияние ветра на лес и влияние леса на ветер. Значение воды для растений и реакция древесных пород на влажность. Влияние на баланс влаги в лесу. Воздействие почвы на леса и потребление минеральных веществ деревьями. Почвенный спрос древесных пород и влияние леса на почву. Важность определения типа леса. Морозов Г.Ф. и теории других ученых о типах лесов. Погребняк П.С. и Сухачев В.Н. теория.

Ключевые слова: лес, ветер, современная техника, влажность, почва, окружающая среда, деревья.

Abstract: *The effect of the wind on the forest and the effect of the forest on the wind. The importance of water for plants and the response of tree species to humidity. Effect on forest moisture balance. Effects of soil on forests and consumption of mineral substances by trees. Soil demand of tree species and the effect of forest on soil. The importance of determining the type of forest. Morozov G.F. and other scientists' theory about the types of forests. Pogrebnyak P.S. and Sukhachev V.N. the theory of.*

Key words: forest, wind, modern technology, humidity, soil, environment, trees.

Kirish

Yer kurrasida bosimning har xil bo'lishi shamolning vujudga kelishi sababchidir. Shamolning tezligiga qarab u salbiy-ijobiy bo'lishi mumkin. Kuchsiz va o'rtacha tezlikdagi shamol (10m/s gacha) normal transpiratsiya uchun, barglarning qizib ketishidan saqlaydi, fotosintezning samaradorligi oshiradi, cho'l changini tarqatadi, ayrim daraxtlarda changlanish bo'ladi. Kuchli shamol o'rmonga zarar keltiradi: daraxt tanasi shaklini yomonlaydi, u sinishi mumkin, novdalari, mevalari to`kiladi. O'rmonning shamolga ta'siri ham kattadir. O'rmon shamolning tezligi o'zgartiradi. Masalan, o'rmonda 25-30m narida shamolning tezligi kamayadi, o'rmonda uning tezligi tushadi va shamolning yo'nalishiga teskari bo`lgan tomonida tezlik kamayadi, bu balanligining 15-20 barobar narida ham davom etadi. Shamoldan tashqari o'rmonda havoning harorati pasayadi, namligi oshadi. Daraxtlarning bu xususiyati dalalarni kuchli shamoldan saqlaydi. O'rmonning shamol kuchini kamaytirish uning kengligi emas, balki



balandligiga bog`liqdir. Rossiya va Ukrainadagi Visotskiy, Sus, Nikitin, Stepanov, Kasyanov, Drobov, O`zbekistondagi Molchanov, Dosaxmetov, Qayumovlarning tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, dalalarni kuchli shamoldan saqlash uchun paxtazor, donli ekinlar maydoni atrofiga keng ixotazorlarni barpo etishga muxtoj yo`qligi ko`rsatishdi. Sug`oriladigan yerlarda o`rmon ixotazorlari umumiyligida maydonning 3% gacha qismi yetarlidir, ya`ni ularning kengligi 10 m dan ham oshmasa bo`ladi. Shu ma'lum bo`lganki, 10 m kenglikda o`rmon ixotazorlari 20-30 m kenglikdagi daraxtzorlarga o`xshash dalalarni kuchli shamollardan himoya qiladilar. O`rmon ixotalarni to`g`ri talab qilgan optimal kenglikda joylashgan, daraxt turlari to`g`ri tanlangan bo`lsa shamolning tezligi undan 25 m larida ham kamaytiriladi, ya`ni keyingi o`rmon ixotazorlari qatorigacha. Hozir O`zbekistonning Farg`ona vodiysi, Mirzacho`l, Qashqadaryo viloyati va boshqa yerlarida 35 mingga ortiq o`rmon ixotazorlari barpo etilgan, asosan paxtazorda. O`zUXITI ning ko`p yillik tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, o`rmon ixotazorlari ta`sirida qishloq xo`jalik ekinlarining hosildorligi o`rtacha gektaridan 2-2,5ts ko`proqdir.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko`ra o`rmon ixotazorlari paxtaning hosildorligini oshirib qolmasdan, ularning tolasi sifatini ham oshiradi. Namlik o'simlik uchun ozuqa vazifasini o'taydi, u fotosintez jarayonida qatnashadi. $\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow (\text{CH}_2\text{O}) + \text{O}_2$ va suv parchalanib «fotolaz» vujudga keladi. Undan tashqari suv hujayrada va to`qimalar uchun qurilish material bo`lib xizmat qiladi. Chunki u hujayrani turg`un holatda ushlab turadi. Suv mineral moddalarni ildizdan tanagacha, shox-shabba va bargga olib kelishga yordam beradi. Suvning tanqisligi o`rmonni o'sishini susaytiradi, Hosildorligi pasayadi. Ammo o'simliklar o'sish uchun juda oz suv iste'mol qiladi (0,001%), suvning ko`p qismi transpiratsiya uchun sarflanadi, o'simlikni qizib ketishdan va qurib qolishdan himoya qiladi. Daraxt turlari namlikka har xil munosabatda bo`ladilar. Bir daraxt turi namligi yaxshi bo`lgan tuproqda o'sadi, quruq tuproqda o'smaydilar, chunki ular namlikka talabchandir. Boshqalari quruq tuproqda o'saveradi. Namlikka munosabati bo'yicha akademik Pogrebnyak daraxt turlarini quyidagi guruhlarga ajratdi.

1. Ultrakserofitlar (juda kam quruqlikka chidamsiz). Saksavul, xandon pista, karkas va boshqalar.

2. Kserofitlar. Yovvoyi olma, uzum, qayrag`och, tikan daraxti, oq akatsiya, sofora, jiyda.

3. Mezikserofitlar (namlikka o`rtacha talabchan). Eman, shumtol, zarang, qarag`ay.

4. Mezofitlar (namlikka talabchan). Yong`oq, chinor, kayin, kashtan.

5. Mezikserofitlar (namlikka o`rtacha talabchan). Tol, teraklar.

6. Gigrofitlar (juda kam namlikka talabchan). Botqoq kiparisi, butasimon qayin, Qora olxa. Ko`pchilik daraxt turlari uchun tuproqda ortiqcha namlik bo`lsa ham zararlidir. Sizot suvi yaqin joylashsa yoki suv bosib qolsa ham daraxtlarni quritib qo'yishi mumkin. Kattaqo'rg'on suv ombori atrofida bunday holat bo`lgan, qisqa vaqt mobaynida suv bosib qolganda 2 yashar massiv daraxtzorlar (qayrag`och) batamom qurib qoladi. Ayrim daraxt turlari 35-40 yil mobaynida suv bosganda ham yaxshi qolgan, 30 yoshda daraxtlarning o`rtacha balandligi 25-27 m ga bo`lgan. Ammo daraxt turlari tuproqning ustki qismini suv bosishiga munosabati yaxshi tadqiqot qilinmagan ToshDAUning o`rmonchilik va o`rmon melioratsiyasi kafedrasi bu masala bilan 1997 yildan beri shug`ullanadi. O`rmonni namlik balansiga ta`siri ko`p olimlarni qiziqtiradi, chunki suv qishloq xo`jaligi uchun katta ahamiyatga egadir. O`zbekistonda bu masala



bilan professor Doshanov M.V., Xanazarov A. va Kocherga F.K. shug` ullanishgan. Hozirgi vaqtda daraxtzlarning suvni sarflash sxemasi ishlab chiqilgan. $X=Y+Y+S+S+P+R+G+Yu$ O- yog`in sochinning miqdori. Daraxtlar tuproqning ozuqa elementlari hisobiga o`sadilar. So`ng o`zlari ham tuproqqa aylanadilar. O`rmonning tarkibi uning unumidorligi va boshqa belgilari tuproqning xususiyatiga bog` liqdir. Undan tashqari, tuproq daraxt turlarining tarqalishlariga ta`sir ko`rsatadi. Bir daraxtlarning yog`och sifati har xil tuproqda har xil bo`ladi. O`zbekistonning sharoitida daraxt turlarining normal ravishda o`sish uchun N, P, K mineral o`g`itlar kerakdir. Ularning optimal miqdori O`zUXITI tomonidan ishlab chiqilgan. Masalan: Kojaxmetov S. ning ma'lumotiga ko`ra 1 ga maydonga o`rtacha hisobda (ko`chat ekilgandan so`ng) N - 120 k, R - 90 va K- 60 kg kerakdir. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko`ra bizning bo`z tuprog`imizda K qisman bordir. Shuning uchun u B va R ga kamroq beriladi. N ni namligi barglarda xloroz paydo qiladi. Ayrim turlar tuproq unumidorligi uchun talabchandir, boshqalari esa kamroq darajada talabchan 14 bo`ladi. Hozirgi vaqtda daraxt turlarining tuproq unumidorligiga talabchanligi bo`yicha shkala tuzilgan.

1. Kam talabchanlararcha, qarag`ay, akatsiya, qayrag`och, saksavul.
2. Cherkez.
3. O`rtacha talabchanlar - eman, katan, shumtol.
4. Talabchanlar - zarang, yong`oq, chinor.
5. Atsifillar - Qayin.
6. Kaltsiefillar - oq akatsiya, qrim qarag`ay, aylant.
7. Nitrofillar - teraklar, tollar.
8. Azot yig`uvchilar - oq akatsiya, sofora, jiyda.

9. Tuzga chidamlilar - Qora saksavul, yulgun, jiyda, aylant, gledichiya, sofora, akas, Baxofen teragi, Qorabarok. Har yili o`rmon tuproqdan ozuqa moddalarni o`zlashtiradi (N,P,K). Ammo daraxtlar qishloq xo`jalik ekinlariga nisbatan (paxta, bug`doy va boshqalar) ozuqa moddalarni kam iste`mol qiladi. Undan tashqari daraxtdan har yili tuproq ustiga barglar, urug`lar, novdalar, qobiq va boshqalar tushadi, chirindi hosil qiladilar, so`ng tuproqqa aylanadi. Shunday qilib, tuproqqa N, P, K qisman qaytib keladi, ya`ni moddalarni aylanmasi sodir etiladi, tuproq daraxtlar o`rmon chirindisi ko`proq. Ayniqsa tuproqni keng bargli turlar yaxshi boyitadi: eman, shumtol, qayrag`och, zarang, chinor, terak va boshqalar. Masalan emanning barglarida N-3%, P-0,1%, K -1,1%, Ca-1,2%. Shunday qilib, o`rmonning unumidorligi uchun ijobjiy ta`sir ko`rsatadi. Daraxtlar tuproqning chuqur qatlamidan ozuqa moddalarni o`zlashtiradilar. So`ng ular barglarga, urug`larga keladi va elementlar tuproqqa qaytib keladi va chirindi qatlamini vujudga keltiradi. Daraxtlar va butalar tuproqning kimyoviy tarkibini o`zgartirib qolmasdan ularning ildizlari tuproqning fizik va suv fizikaviy xususiyatlariga ham ta`sir ko`rsatadi.

O`zbekistondagi va boshqa daraxtlardagi hamma o`rmonlar daraxtlar tarkibi, yoshi, kelib chiqishi, yog`ochi, bonitet va boshqa belgilari qarab ayrim uchastkalarga bo`linadi. Ammo tabiatda 2 bir xil uchastka tarkib bo`yicha (10 archa), bir xil bonitetli (IV) bo`lishi mumkin. Bir uchastkada archa (10AIV B) janubiy qiyalikda o`sadi va pastki bonitetligi namlik kamligidadir. Boshqa uchastkada archaning pastki bonitetligi tuproqda tuzning ko`pligidir, ya`ni bu



uchastkada o'rmonning hosildorligini oshirish uchun har xil tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Shuning uchun o'rmonlarni guruhlarga ajratish masalasi o'rmon xodimlari oldida vujudga keladi. Bu uchastkalar bir turda bo'lishi uchun, u yerda tuproq iqlim sharoiti bir xil bo'lishi kerak, bu yerda bir xilda o'rmon xo'jaligi tadbirlari olib borilishi kerak: parvarish maqsadida daraxtlarni qisman kesish yoki sanitar turdag'i kesish, quritish, sug'orish ishlari va boshqalar. O'rmonlarni guruhlarga ajratish to'g'risida birinchilardan bo'lib rus olimi G.F.Morozov asos soldi. U shuni tasdiqladiki, har xil o'rmon xo'jaligi tadbirlarini shu yerning o'sish sharoitiga qarab olib borish kerakdir, agar shunday ish qilinmasa natija salbiy bo'lishi mumkin. G.F.Morozov shuni e'tiborga olganki, agar o'rmon bo'z tuproqda o'sayotgan bo'lsa, u bir guruhli o'rmon, agar jigarrang tuproqda o'sayotgan bo'lsa u ham boshqa guruh bo'ldi va hokazo.

O'rmonlarning guruhlarga bo'linish nazariyasini G. F. Morozovdan so`ng akademik V.N.Sukachev davom ettirdi. U avval o'rmonni guruhga ajratish uchun asos qilib, daraxtning asosiy turi va tuproqning ustki qismini qoplagan o't o'simliklarni oldi. So'ogra u o'rmonning turini o'rmon biogeotsenozi deb bildi. U bir guruhga tarkibi bir bo'lgan (10 Ar yoki 10 yong'oq yoki 10 saksovul), tuproqli bir guruhli (bo'z tuproq yoki Qora tuproq), o'simliklar turi yoki hayvonotlar turi bo'yicha va hokazolarni bir o'rmon guruhiga birlashtiradi. Bu o'rmon guruhlari to'g'risidagi nazariyani N.S.Pogrebyak davom ettirdi. U o'rmonni guruhlarga ajratish asos qilib 2 faktorni tuproqning namligi va unumidorligini oldi. Shu asosda Pogrebnyakning edafik setasi tuzilgan edi. Indikator orqali bilish va o'rmonli yerlarning bonitetini aniqlashga imkon beradi. Edafik tur o'rmon xo'jaligida ko'p davlatlarda ishlatiladi, shu jumladan O'zbekistonda ham. Turkmanboshi, Amubuxoro kanallari o'tgan qumli yerlarning guruhlarga bo'linishini M.A.Petrov, Orol dengizining qurigan tubidagi tuproqlarning guruhga ajralishini Z.B.Novitskiy ishlab chiqqan. Markaziy Osiyo cho'llari sharoitini guruhlarga ajratishda birinchi bo`lib S.P.Ratyakovskiy boshladi. Unda u guruhga ta'rif beradi.

1.Ostida o'lchamni qumli va poyma joylashgan qalinligida 0-1 va 1-3 m bo`lgan qumliklar.

2. Ostida taqir bo'lgan qumlikning qalinligi 0-1, 1-3 va 5 m dan yuqori.

3. Ostida sho'r tuproq bo`lgan qumning qalinligi 0-1, 2-3 va 3 m dan yuqori.

4. Ilgari sug'orilgan yerlar ustidagi qalinligi 0-1 va 1-5 m qumlik.

5. Qrimida daryo qumlari uyumlari, qumning qalinligi 0,2-1,5m, 1,5-5 m va 5 m dan yuqori.

Ammo bu ishlar ham yaxshi ishlab chiqarilmagan va Litkovskiy, Saxatskiy, Novskiy ishlab chiqqan o'rmon guruhlari qayta ishlab chiqilishi darkor. Chunki archazorlarni hosildorligini oshirish uchun tog'li mintaqalarda, to'qayzorlarda, cho'llarda o'rmonlarning samarasini oshirish uchun o'rmon guruhlarini hisobga olish kerakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ablayev S.M, Dosaxmetov A.O, Yuldashev Ya.X. «O'zbekiston sharoitida terak etishtirish». T.: 1995.



2. Ablayev S.M. «Fistashka», Agropromizdat, M: 1987.
3. Bog` danov P.L. «Dendrologiya». M.: 1974.
4. Bulgin N.Ch. «Dendrologiya». M.: 1985.
5. Gorshenin N.M, Shvidenko A.I. «Lesovodstvo». Lvov. 1977.
6. Melexov I.S. Lesovodstvo». M.: 1989.
7. Nigmatov U. «Mero` sodeystviya estestvennomu vozobnovleniyu v archownikax O`zbekistana». T: 1960.
8. Usmanov K. «Dendrologiya». T: 1980.